



THE RENEWAL OF THE CONSTITUTION OF UZBEKISTAN AND GUARANTEES OF HUMAN RIGHTS

Boburbek Khasanov

4th-year student, Faculty of Law

Berdaq Karakalpak State University

Nukus, Karakalpakstan

ABOUT ARTICLE

Key words: Constitution of Uzbekistan, human rights, freedoms, constitutional reform, legal guarantees, civil society, international standards.

Received: 20.07.25

Accepted: 21.07.25

Published: 22.07.25

Abstract: This article analyzes the role of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, updated in 2023, in strengthening human rights and freedoms. In the new edition, human dignity, worth, freedom and equality are recognized as priority values, and the system of legal guarantees has been improved. The article highlights the main directions of constitutional reforms, their compliance with international standards and their significance in the development of civil society.

O'ZBEKİSTON KONSTITUTSIYASINING YANGILANISHI VA INSON HUQUQLARI KAFOLATLARI

Boburbek Xasanov

Yuridika fakulteti 4-kurs talabasi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

Nukus, Qoraqalpog`izton

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: O'zbekiston Konstitutsiyasi, inson huquqlari, erkinliklar, konstitutsiyaviy islohot, huquqiy kafolatlar, fuqarolik jamiyat, xalqaro standartlar.

Annotatsiya: Mazkur maqolada 2023-yilda yangilangan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining inson huquqlari va erkinliklarini mustahkamlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Yangi tahrirda inson sha'ni, qadr-qimmati, erkinligi va tengligi ustuvor qadriyat sifatida e'tirof etilib, huquqiy kafolatlar tizimi takomillashtirilgan. Maqolada konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy yo'nalishlari, xalqaro standartlarga muvofiqligi va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

ОБНОВЛЕНИЕ КОНСТИТУЦИИ УЗБЕКИСТАНА И ГАРАНТИИ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Бобурбек Хасанов

Студент 4 курса юридического факультета

Каракалпакский государственный университет имени Бердака

Нукус, Каракалпакстан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Конституция Узбекистана, права человека, свободы, конституционная реформа, правовые гарантии, гражданское общество, международные стандарты.

Аннотация: В статье анализируется роль Конституции Республики Узбекистан, обновленной в 2023 году, в укреплении прав и свобод человека. Новая редакция признает человеческое достоинство, ценность, свободу и равенство в качестве высших ценностей и совершенствует систему правовых гарантий. В статье освещаются основные направления конституционных реформ, их соответствие международным стандартам, а также их значение в развитии гражданского общества.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – mamlakatning asosiy qonuni bo‘lib, u davlat tuzilishi, jamiyat hayoti va fuqarolarning huquq va erkinliklarini belgilovchi hujjatdir. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan Konstitutsiya mustaqil O‘zbekistonning huquqiy asoslarini yaratdi. Oradan o‘tgan yillar davomida jamiyatda yuz bergan o‘zgarishlar, demokratik tamoyillarning chuqurlashuvi va inson huquqlariga bo‘lgan e’tibor Konstitutsiyani yangilash zaruratini keltirib chiqardi. 2023-yil 30-aprel kuni bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumi natijasida Konstitutsiyaning yangi tahriri qabul qilindi. Ushbu yangilanish inson huquqlari va erkinliklarini yanada mustahkamlash, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan muhim qadam bo‘ldi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil

IYangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklari alohida e’tibor bilan yoritilgan. Konstitutsiyaning ikkinchi bo‘limi “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlanib, uning 7 ta bobi inson huquqlariga bag‘ishlangan. Bu bo‘limda barcha fuqarolarning millatidan, jinsidan, tilidan, dinidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi belgilangan.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish sohasiga taalluqli 18 ta kodeks va 500 dan ortiq qonunlar qabul qilindi.

Konstitutsiyada inson sha'ni va qadr-qimmati oliv qadriyat sifatida e'tirof etilib, davlatning asosiy vazifasi inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash ekanligi qayd etilgan. Shuningdek, har bir insonning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligi, shaxsiy hayotga aralashmaslik, yashash joyi, yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar, pochta, elektron va boshqa xabarlari sir saqlanishi huquqlari kafolatlangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan tashkiliy kafolatlar mustahkamlanib, unda inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) instituti, sud hokimiyati mustaqilligi, advokatlik faoliyatining erkinligi va boshqa huquqiy himoya mexanizmlari belgilangan.

Shuningdek, Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklarini cheklash faqat qonun asosida va faqat konstitutsiyaviy tuzumni, jamoat xavfsizligini, jamoat tartibini, aholining sog'lig'ini, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish maqsadida zarur bo'lgan doirada amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash borasida xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Shuningdek, Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda davlat organlari va mansabdar shaxslarning jamiyat va fuqarolar oldidagi mas'uliyati, davlatning xalq irodasini ifoda etishi va uning manfaatlariga xizmat qilishi, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash kabi tamoyillar mustahkamlangan.

Natijalar

Konstitutsianing yangi tahririda O'zbekistonda ijtimoiy adolatning ustuvor tamoyil sifatida e'tirof etilishi inson huquqlarining nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy- iqtisodiy jihatdan ham keng kafolatlanishini anglatadi. Jumladan, fuqarolarning munosib hayot kechirishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlari aniq belgilab qo'yilgan. Bu esa davlatning nafaqat huquqni muhofaza qilishdagi, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi mas'uliyatini oshiradi.

Masalan, Konstitutsiyada ilk bor "ijtimoiy davlat" tamoyili mustahkamla qo'yildi. Bu tamoyilda davlat har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan sifatli ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda «Asosiy qonunimizda «O‘zbekiston – ijtimoiy davlat» degan tamoyilni mustahkamlashni taklif etaman. Chunki «inson qadri» tushunchasi «ijtimoiy davlat» tushunchasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu g‘oyaning tub negizida ham avvalo inson qadrini ulug‘lash, insonga xizmat qilishdek oljanob maqsad mujassamdir», deb ta’kidlagan edi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolarning ekologik xavfsizlikka bo‘lgan huquqlari ham alohida moddalarda mustahkamlab qo‘yildi. Atrof-muhitning tozaligini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, inson va tabiat o‘rtasidagi ekologik muvozanatni tiklash – bularning barchasi endilikda konstitutsiyaviy vazifaga aylangan.

Xususan, Konstitutsiyada har bir insonning sog‘lom ekologik muhitda yashash huquqi e’tirof etilib, davlat bu huquqni ta’minalash uchun muayyan ekologik siyosat yuritishi lozimligi belgilangan. Bu, o‘z navbatida, qonunchilikda ekologik ekspertiza, bioxilma-xillikni saqlash, iqlim o‘zgarishlariga moslashish kabi strategik yo‘nalishlarning rivojlanishini taqozo etadi.

Konstitutsiyada fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minalashga bag‘ishlangan maxsus normalar, xususan, har kim qulay atrofmuhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega ekanligi, davlat tomonidan atrof-muhitni yaxshilash, ekologik muvozanatni saqlash va ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash yuzasidan choralar ko‘rishi belgiland.

Konstitutsiyada fuqarolik jamiyatni institutlarining roli va ahamiyati keskin ravishda oshirildi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, mustaqil journalistika, kasaba uyushmalari va boshqa fuqarolik jamiyatini tashkil qiluvchi elementlar davlat bilan teng hamkorlik sub'yekti sifatida e’tirof etildi. Bunday o‘zgarishlar jamiyatda ijtimoiy nazoratni kuchaytiradi, ochiqlik va hisobdorlik prinsiplarini mustahkamlaydi.

Shuningdek, Konstitutsiya darajasida jamoatchilik eshituvlari, ochiq parlament va byudjet jarayonlari, ochiq ma’lumotlar siyosati kabi demokratik institutlarning huquqiy asosi mustahkamlandi. Bu esa fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirib, ularning siyosiy faolligini oshiradi.

Aloholida e’tiborga molik jihat shuki, Konstitutsiyada ilk bor “ochiq ma’lumotlar” tamoyili tilga olinib, davlat organlarining faoliyati ochiqligi, axborotdan foydalanish erkinligi va shaffoflik milliy huquqiy tizimning ajralmas qismiga aylandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada adolatli sudlovga bo‘lgan konstitutsiyaviy huquq aniq bayon etilgan bo‘lib, unda har bir shaxsning mustaqil va xolis sud orqali himoya olish huquqi mustahkamlangan. Sud hokimiyatining mustaqilligi, sudyalarning daxlsizligi, ularning faoliyatiga aralashuvning qat’iyan taqiqlanishi, shuningdek, advokatura instituti mustahkam huquqiy asosda faoliyat yuritishi bularning barchasi adolatga erishish kafolatlarining muhim omillaridir.

Konstitutsiyaning 29-moddasida «Har kimga ma-lakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanadi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda yuridik yordam davlat hisobidan ko'rsatiladi. Har bir shaxs jinoyat protsessining har qanday bosqichida, shaxs ush-langanida esa uning harakatlanish erkinligi huquqi amalda chek-langan paytdan e'tiboran o'z tanloviga ko'ra advokat yordamidan foydalanish huquqiga ega.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning eng fundamental o'zgarishlaridan biri – 1- moddada qayd etilgan davlatning demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy xarakterga ega ekanlidir. Ushbu formulirovka orqali inson qadri, erkinligi va farovonligi – davlat siyosatining eng oliv maqsadi sifatida tan olingan.

Bu nafaqat falsafiy asos, balki huquqiy amaliyotda inson manfaati ustuvorligini anglatadi. Xalq cheklanmagan hokimiyatga egaligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasi-da aks ettirilgan.Unga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining bir-dan-bir manbaidir. Xalq suvereniteti, birinchidan, ayni mamlakat-da xalq cheklanmagan hokimiyatga egaligini, ikkinchidan, xalq o'z hokimiyatini bevosita hamda davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari orqali amalga oshirishi mumkinligini bildiradi.

O'zbekistonda ilk bor Konstitutsiyada ekologik xavfsizlik alohida e'tiborga sazovor bo'ldi. 49-moddada "Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to'g'risidagi ishonchli axborotga ega bo'lish huquqiga ega" deb yozilgan. Ushbu modda orqali davlat nafaqat bugungi fuqarolarning, balki kelajak avlodlarning ekologik manfaatlarini ham konstitutsiyaviy himoyaga olgan.Aynan shu moddaning ikkinchi bandida davlat va jamiyatning tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni tiklash bo'yicha majburiyatlari aniq ko'rsatilgan. Bunday yondashuv avlodlararo adolat prinsipiga asoslanib, ekologik barqarorlikni konstitutsiyaviy qadriyat sifatida tan olgan.31-moddada har bir insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsiz deb e'tirof etiladi. Bu norma nafaqat axloqiy, balki huquqiy jihatdan muhim: davlat organlari va mansabdor shaxslar hech qanday holatda ham fuqaroni kamsituvchi, sha'nini poymol qiluvchi munosabatda bo'lishga haqli emas.

Bundan tashqari, 31-moddada fuqaroning shaxsiy hayotiga aralashmaslik, uy- joy daxlsizligi, shaxsiy yozishmalari, telefon va boshqa muloqot vositalarining sir saqlanishi huquqi belgilangan. Faqat qonun bilan belgilangan hollarda va faqat sud qarori asosida bu huquq cheklanishi mumkin. Bu esa inson shaxsining daxlsizligi, xususan, zamonaviy raqamli texnologiyalar davrida axborot xavfsizligi bilan bevosita bog'liqn muhim kafolatdir.

Yangi tahrirda 55-moddada har bir insonning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlangan.Sudning mustaqilligi va adolatliligi, ishlarning ochiqligi va tortishuv tamoyiliga asoslangan yuritilishi konstitutsiyaviy normalar darajasida mustahkamlangan.

Fuqarolarning davlatga, xususan, mansabdar shaxslarga nisbatan da'vo kiritish huquqi, shuningdek, sud qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqi – bu adolatli davlatning asosiy belgilaridan biri bo'lib xizmat qiladi. Sudlarning qarorlari faqat qonunga asoslangan bo'lishi lozimligi, ularning ijrosi kafolatlanishi bo'yicha konstitutsiyada qat'iy normalar belgilangan.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolik jamiyatni institutlarining roli va ahamiyati keskin ravishda oshirildi. Nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, mustaqil jurnalistika, kasaba uyushmalari va boshqa fuqarolik jamiyatini tashkil qiluvchi elementlar davlat bilan teng hamkorlik sub'yekti sifatida e'tirof etildi.

Bunday o'zgarishlar jamiyatda ijtimoiy nazoratni kuchaytiradi, ochiqlik va hisobdorlik prinsiplarini mustahkamlaydi. Shuningdek, Konstitutsiya darajasida jamoatchilik eshituvlari, ochiq parlament va byudjet jarayonlari, ochiq ma'lumotlar siyosati kabi demokratik institutlarning huquqiy asosi mustahkamlandi. Bu esa fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirib, ularning siyosiy faolligini oshiradi.

Konstitutsiyamizga ilk marotaba fuqarolik jamiyatni institutlari ga bag'ishlangan alohida bob kiritilgani va ular faoliyati kafolatlari ning belgilangani jamiyatda ochiqlik, oshkorlik va qonuniylik muhitini, davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash hamda kuchli jamoatchilik nazoratini yo'lga qo'yish uchun mustahkam zamin hozirlaydi. Bu tom ma'noda juda muhim yangiliklardandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada adolatli sudlovga bo'lgan konstitutsiyaviy huquq aniq bayon etilgan bo'lib, unda har bir shaxsning mustaqil va xolis sud orqali himoya olish huquqi mustahkamlangan. Sud hokimiyatining mustaqilligi, sudyalarning daxlsizligi, ularning faoliyatiga aralashuvning qat'iyan taqiqlanishi, shuningdek, advokatura instituti mustahkam huquqiy asosda faoliyat yuritishi – bularning barchasi adolatga erishish kafolatlarining muhim omillaridir.

Qonun ustuvorligi shuningdek shaxsga uning uchun majburiy bo'l-gan mazkur hujjatlarni qabul qilish jarayonida uning o'zi yoki saylab qo'ygan vakillari orqali ishtirok etish, davlat boshqaruviga ta'sir o'tka-zish, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdar shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqini ta'minlaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat hokimiyati tizimining samaradorligini oshirish maqsadida bir qator muhim o'zgarishlar amalgalashdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati vakolatlari aniq belgilandi. Qonunchilik palatasi qonunlarni qabul qilish, davlat budgetini tasdiqlash va ijrosini nazorat qilish, shuningdek, Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqish kabi vakolatlarga ega bo'ldi. Senat esa sud tizimi, prokuratura,

Markaziy bank va boshqa muhim davlat organlari rahbarlarini tasdiqlash, xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish kabi vakolatlarni amalga oshiradi.

Bundan tashqari, Prezident vakolatlari ham qayta ko‘rib chiqildi. Prezident davlat boshlig‘i sifatida ichki va tashqi siyosatni belgilash, qonunlarni imzolash yoki rad etish, Oliy Majlisga qonun loyihalarini kiritish, shuningdek, mudofaa va xavfsizlik masalalarida qarorlar qabul qilish vakolatlariga ega bo‘ldi.

Yangi Konstitutsiyada mahalliy davlat hokimiyati va fuqarolarning o‘zini o‘z boshqarish organlarining roli kuchaytirildi. Viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimlari tegishli xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi va ularning faoliyati ustidan nazorat amalga oshiriladi. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari esa mahalla darajasida ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Bu o‘zgarishlar mahalliy boshqaruuv organlarining mustaqilligini oshirish, fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirokini ta’minalash va mahalliy muammolarni joyida hal etish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Xulosa va munozara

2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlari va erkinliklarini ta’minalash, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Yangi tahrirda inson sha’ni, qadr-qimmati, erkinligi va tengligi ustuvor qadriyat sifatida e’tirof etilib, huquqiy kafolatlar tizimi takomillashtirildi. Shuningdek, xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minalash, huquqiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi. Bu esa O‘zbekistonning inson huquqlari sohasida xalqaro maydondagi obro‘sini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
https://constitution.uz/oz/pages/yangi_tahrirdagi_konstitutsiya
2. "Yangi O‘zbekistonni yangilangan Konstitutsiyasi: insonparvar demokratik huquqiy davlat qurishning mustahkam asosi".
3. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi.
https://nhrc.uz/oz/news/yangi-ozbekistonni_yangilangan-konstitutsiyasi-insonparvar-demokratik-huquqiy-davlat-qurishning- mustahkam-assosi
4. "Inson huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy-huquqiy kafolatlari". Yuz.uz.
https://yuz.uz/uz/news/inson-huquq-va-erkinliklarinin_konstitutsiyaviy-huquqiy-kafolatlari

5. "Inson manfaatlari konstitutsiyasi"

Constitution.uz.

https://constitution.uz/oz/pages/Inson_manfaatlari